

**"HARBIY VATANPARVARLIK" - MAK TABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI
BOLALAR NI "VATANPARVAR" QILIB TARBIYALASHNING MUHIM OMILI**

Bujabaeva Zoya Djumabaevna

Qo'ng'irot tumani 20-sonli maktabgacha ta'lism tashkiloti direktori

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyalanuvchilarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik jihatlariga to'xtalib o'tildi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarni vatanga sodiq farzand qilib tarbiyalashning ilmiy-amaliy jihatlari ilmiy takliflar, tavsiyalar va xulosalar asosida tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar: vatan, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, ommaviy globallashuv, sadoqat.

**"MILITARY PATRIOTISM" IS AN IMPORTANT FACTOR OF PATRIOTIC
EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN**

Abstract

The article focused on the pedagogical aspects of educating the students of the preschool educational organization in the spirit of military patriotism. Also, the scientific and practical aspects of educating children loyal to the motherland were analyzed on the basis of scientific proposals, recommendations and conclusions.

Keywords: homeland, patriotism, military-patriotism, mass globalization, loyalty.

Hadisi Sharifda "Vatanni sevmoq – iymondandur" deb da'vat qilinadi. Vaholanki, o'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqning bugungi avlodlari, o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilishini ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo'lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida rivojlantirish jismoniy tarbiya va sport o'ynlarining roli juda muhimdir. Tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismoniy va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning kechiktirib bo'lmash vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta'lism – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga

ham qodir bo‘lishni talab etadi. Tarbiyalanuvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mактабгача та’лим ташкilotlarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada albatta, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52 - moddasida yozilgan: O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir O‘zbekiston fuqarosning burchi ekanligi huquqiy jihatdan asoslab berilgan.

Vatan himoyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlar tizimini tashkil etadi. Harbiy xavf potensial manbalari mavjud ekan O‘zbekiston zaruriy yetarlilik darajasida davlat mudofaa qudratini mustahkamlashi zarur. Xavf-xatar tug‘ilishi mumkin bo‘lgan sabablar quyidagi holatda namoyon bo‘ladi:

1. Dunyoning turli mintaqalarida qurollangan guruhlarning bir joyga to‘planishining yuqori darajasi;
2. Dunyo bo‘yicha siyosiy vaziyatning kuchayishi;
3. Alovida davlatlar va davlat bloklarininig o‘z siyosatlarini kuch bilan hal qilishi;
4. Ba’zi davlatlarning boshqa mamlakatlar chegarasi yaqinida o‘z qurolli kuchlari guruhlarni kuchaytirishga intilishi;
5. Chegaradosh mamlakatlarda yuzaga kelgan siyosiy ahvolning o‘zgaruvchanligi va ularning kuchayishi imkoniyati mavjudligi;
6. Ba’zi bir Davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi malakatlarga o‘z ta’sirini kuchaytirishga intilishi;
7. Siyosiy ekstremist guruhlari, noqonuniy-harbiy uyushmalar tomonidan tashkil qilingan terroristik aktlar. Shu bilan birga millatlar orasida buzg‘unchilik siyosatning olib borilish faoliyati. Xalqning tinch hayoti va mamlakat havfsizligi kafolati, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo‘liga qadam qo‘ygan yosh mamlakat mustaqilagini qo‘riqlaydigan Qurolli kuchlarimizning asosiy vazifasidir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining navbatdagi yo‘nalishi yoshlarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish. Bu jismoniy chidamlilik, og‘ir jismoniy vazifalarni kundalik harbiy xizmat hamda jangovar sharoitda ko‘tara olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Jismoniy o‘quv-nafaqat o‘z – o‘zidan muhim bo‘lgan tetiklik va optimizm manbasi, balki Vatan mehnati va himoyasiga tayyorlik, bo‘sh vaqtan unumli foydalanish shaklidir. Bog‘cha va maktab yillari – butun umrga poydevori, ya’ni sog‘liq asoslarini singdiruvchi paytdir. Harakat, gimnastika, sport o‘yinlari yoshlarning ijobiy xislatlarini shakllantiradi. Mardlik, iroda, qiyinchiliklarni bartaraf eta olish kabi xislarni tarbiyalaydi. Bolalikda yo‘l qo‘ylgan jismoniy tarbiyadagi kamchiliklar, murakkab va ba’zida esa umuman katta yoshda to‘ldirib bo‘lmaydigan jarayondir. Zamonaviy yoshlarning jismoniy tayyorgarligi zamonaviy ishlab chiqarish hamda Qurolli Kuchlar safida xizmatga bo‘lgan talablarga to‘laqonli javob bermaydi. Bu o‘z o‘rnida yoshlarning aqliy, jismoniy, axloqiy – ma’naviy va ruhiy holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan kasalligidan xalq xo‘jalik sohalari ham katta zarar ko‘rmoqda. Statistika ko‘rsatadiki, yoshlar ichida ortiqcha og‘irlilikka ega, kasalliklarga moyil bo‘lgan gavda va tayanch – harakatlantiruvchi apparatda nuqsonlari bo‘lgan yoshlar

foizi katta, mutaxasislar fikricha, qoloq tarbiyalanuvchilar ichidagi 58% dangasalik yoki yaxshi rivojlanmaganlik sababliga ko‘ra emas, balki jismoniy nuqson va kamchiliklar deb o‘z tengdoshlaridan orqada qoladi. Tuman, shahar madaniy-oqartuv va sport muassasalaridan yaxshi foydalanish, turli sport to‘garak va seksiyalari faoliyati oshirish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari sifatliroq o‘tkazish maqsadaga muvofiq.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 23 fevral, “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi” 140-sonli Qarori tasdiqlandi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda quydagи omillarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarni harbiy sohaga qiziqishlarining usul va vositalarini aniqlash ular ustida muntazam ish olib borish talab etiladi.

Ikkinchidan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini doimiy tashkil qilish lozim. Chunki tarbiyalanuvchilar har bir jarayonni amalda o‘z ko‘zlar bilan ko‘rsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa tarbiyalanuvchilarni qobiliyatini shakllanishiga vatanparvarlik hissini shakllanishiga sababchi bo‘ladi.

Uchinchidan, Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini harbiy qismlariga tashrifini uyuştirish, harbiy muzeylar bilan yaqindan tanishtirish ularni qiziqishini oshirishga yo‘naltirilgan har xil harbiy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish asosiy masalalardan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash chora-tadbirlar rejasi ishilab chiqilgan bo‘lib bu quyidagilardan iborat:

- yozgi oromgohlar tarbiyalanuvchilari uchun «Men harbiy bo‘laman» mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini mard va pahlavon yigit bo‘lishga bo‘lgan havaslarini oshirishga va ona-yurtga sodiq farzand bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan «Jaloliddin bahodirlari nomli sport o‘yinlarini tashkil etib borish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini harbiy-texnika vositalari bilan muntazam tanishtirib borish;
- maktabgacha ta’lim bo‘limi va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan harbiylar ishtirokida bolajonlar uchun turli tadbirlarni tashkil etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ona vatanga sodiq farzand bo‘lib yetishishi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan quydagи mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish lozim;

- harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish;

- Ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog‘liq mavzulardagi she‘r va qo‘sishlarni yod oldirish;
- bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlар tashkil etish, shu orqali ularni ma’naviy rag‘batlantirish;
- harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o‘yinlar o‘tkazish;
- harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog‘liq madaniyat va istirohat bog‘lariga ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quydagi muammolar mavjud:

- 1) MTTlarda tarbiyalanuvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mavjud harbiy jihozlarning harbiy maketlar, harbiy mashg‘ulot maydonchalari va harbiy o‘yinchoqlaning yo‘qligi yoki yetishmasligi.
- 2) Tarbiyalanuvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar, didaktik materiallar va mashg‘ulot ishlanmalarining yo‘qligi yoki yetishmasligi.
- 3) Tarbiyalanuvchilarda harbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda harbiylar bilan uchrashuvlar, tadbirlar va tarbiyalanuvchilarni harbiy qismlar, harbiy muzeylarga tashriflarining kamligi tarbiyalanuvchilarda harbiy sohaga bo‘lgan qiziqishni va ko‘nikmani yaxshi shakllanmasligiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilganda bolalarni bugun toboro yetilib kelayotgan “ommaviy globallashuv”ning ta’sir doirasiga tushib qolishni oldini olish va yildan-yilga oshib borayotgan tashqi va ichki xavfning bolalar qalbi va ongiga bo‘lgan tarbiyani takomillashtirishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Bu borada albatta bola shaxsida harbiy sohaga bo‘lgan sog‘lom munosabatni qaror toptirish eng asosiy masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Ilk qadam » davlat dasturi. - T., 2018.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.
3. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin., 2-jild. -T.: «O‘zbekiston», 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: «o‘zbekiston», 1996.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: o‘qituvchi, 1992.
6. Mahkamov U. Axloq - odob saboqlari. -T.: Fan, 1994.-135b.
7. Qurbanov Sh., E. Seytxalilov va boshqalar. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. Toshkent, “Akadememiya” 2002
8. Samadov X., Sh. Eshpulatov. Maktabgacha ta’lim tashkilotida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi: Qanday olib borilishi kerak?. J.Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi. №10.2019, B.12.